

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA BO‘LAJAK  
O‘QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna*

*Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti*

*[nilufar.kobilova90@mail.ru](mailto:nilufar.kobilova90@mail.ru)*

*<https://orcid.org/0009-0007-5648-6985>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va innovatsion faoliyatga tayyorgarligi muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi jarayonida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuv va metodlarni aniqlash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, oliy ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetentlik, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'lim modernizatsiyasi, pedagogik faoliyat, kasbiy rivojlanish.

**Kirish.** Globallashuv, raqamlashtirish va ta'lim tizimining jadal modernizatsiyalashuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalari oldida bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassis

sifatida, balki shaxsiy, axloqiy va emotsional jihatdan yetuk, o‘z kasbiy faoliyatini ongli ravishda loyihalay oladigan pedagog shaxs sifatida tayyorlash vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik faoliyatning murakkablashuvi, ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan ko‘p qirrali vazifalar va ijtimoiy mas’uliyatning ortib borishi o‘qituvchidan ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida barqaror uyg‘unlikni ta’minlashni talab etadi. Mazkur uyg‘unlik pedagogika fanida “pedagogik kongruentlik” tushunchasi orqali ifodalanadi. Pedagogik kongruentlik o‘qituvchining ichki kasbiy e’tiqodlari, axloqiy-etik pozitsiyasi, emotsional-intellektual holati va tashqi pedagogik faoliyatining mazmunan va funksional jihatdan bir-biriga mos kelishini anglatadi. Kongruent pedagog o‘quvchilar bilan muloqotda samimiylilik, izchillik va barqaror pedagogik pozitsiyani namoyon etadi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaldagi oliy pedagogik ta’lim amaliyotida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlikni maqsadli va tizimli rivojlantirish masalasiga yetarli e’tibor qaratilmayotgani kuzatiladi. O‘quv jarayonida ko‘proq bilim va texnologik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga urg‘u berilishi, pedagog shaxsining emotsional, axloqiy va refleksiv rivojlanishi ko‘pincha ikkilamchi ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Natijada bo‘lajak pedagoglarning nazariy tayyorgarligi bilan real pedagogik faoliyati, ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik xulq-atvori o‘rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etishda loyihaviy yondashuv ta’lim jarayonining samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy yondashuv talabalarning faol, mustaqil va mas’uliyatli ishtirokini ta’minlab, ularni real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni mustaqil hal etish, refleksiv fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Ushbu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida mazmunan uyg‘unlik

shakllanib, pedagogik kongruentlikni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili loyihaviy yondashuvning bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyatini keng yoritgan bo‘lsa-da, uning aynan pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mazmuni, mexanizmlari va metodik ta‘minoti yetarli darajada ochib berilmagan. Shuningdek, oliy ta‘lim sharoitida loyihaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishning yaxlit metodik modeli va pedagogik shart-sharoitlari bo‘yicha kompleks tadqiqotlar kam uchraydi.

Mazkur holatlar oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihaviy yondashuv asosida pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish mazmunini ilmiy jihatdan asoslash, uning pedagogik mexanizmlari va samarali shakl hamda usullarini aniqlash zaruratini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kongruentlik masalasi quyidagi savol bilan ifodalanadi: o‘qituvchi bu normativ hujjatlar, standartlar va pedagogik texnologiyalarda belgilangan me‘yorlarni bajaruvchi shaxsmi yoki o‘zining professional biografiyasini yaratgan, professional pedagogik mehnat maydonida o‘zini namoyon qiluvchi muallifmi? Pedagogik mehnat sohasida professional sifatida shakllanish uzoq, ziddiyatli va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda o‘shish, stagnatsiya va inqirozlar mumkin. Professional o‘zini rivojlantirish manbalarini ichki va tashqi professional-ta‘lim muhitlarida qidiradi, shu nuqtai nazardan, o‘qituvchining uzviy, uyg‘un va samarali shakllanishini ta‘minlovchi yangi yondashuvlarni izlash muhim hisoblanadi, shuningdek, mavjud yondashuvlar kasbga kirish jarayonini o‘rganishda qisman xususiyatga ega. Pedagogik mehnatda inson bir vaqtda shaxs, individ, individual va sub‘ekt sifatida namoyon bo‘ladi. XX asrning 90-yillaridan boshlab, faoliyatni rivojlantirish yondashuvi bilan birga, professional tayyorgarlikda xulq-atvor yondashuvi ham dolzarb bo‘lib

kelmoqda. Tadqiqot amaliyotida bir nechta pozitsiyalar shakllangan bo‘lib, ular pedagogik faoliyat va o‘qituvchining xulq-atvorini bir-biri bilan bog‘lash, pedagogik faoliyat va xulq-atvorni ichki va tashqi namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rish, shuningdek, o‘qituvchining kongruentlik va pedagogik faoliyatini mustaqil pedagogik kategoriya sifatida tavsiflash bilan bog‘liq. Ilmiy manbalarda “o‘qituvchining professional kongruentligi” konsepti faol joriy etilmoqda. Bu murakkab, ko‘p qirrali, funksional pedagogik hodisa bo‘lib, o‘qituvchining professionalizmi darajasini aks ettiradi. Kongruentlik shaxsning tashqi muhit bilan munosabatlari jarayonida ichki ehtiyojlar va tashqi imkoniyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi funksional tizimdir.

Tadqiqotchilar funksional tizimlarning tashkil topishini bir nechta darajalarda ko‘rib chiqadilar, jumladan: metabolik, gomeostatik, xulq-atvoriy, psixik va ijtimoiy darajalar. Ushbu darajalarning har birida shakllanuvchi funksional tizim muayyan vazifalarni bajarib, insonning atrof-muhit sharoitlariga moslashuvini ta’minlaydi. G‘arb ilmiy tafakkurida kongruentlik masalasi, avvalo, shaxs psixologiyasi doirasida o‘rganilgan. Xususan, K. Rogersning gumanistik psixologiya nazariyasida kongruentlik shaxsning ichki kechinmalari, ehtiyojlari va tashqi xulq-atvori o‘rtasidagi moslik sifatida izohlanadi. Rogers ta’lim jarayonida o‘qituvchining samimiyligi, ochiqligi va reflektiv pozitsiyasini ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholaydi. Ushbu yondashuv keyinchalik pedagogik faoliyatga tatbiq etilib, “kongruent o‘qituvchi” modeli shakllandi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda pedagogik kongruentlik ko‘pincha professional-pedagogik kompetentlik, refleksiya va emotsional-intellektual rivojlanish bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. I.A. Zimnyaya pedagog kompetentligini shaxsiy, motivatsion va reflektiv komponentlar birligi sifatida talqin qilib, pedagog shaxsining ichki barqarorligi uning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. N.V. Kuzmina pedagog professionalizmini o‘rganar ekan, ustozning kasbiy xulq-atvori uning shaxsiy

e'tiqodlari va axloqiy pozitsiyasi bilan uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. M.M. Abdullaeva tadqiqotlarida esa pedagogik refleksiya va emotsional barqarorlik pedagogik kongruentlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Loyihaviy yondashuv masalasi pedagogik adabiyotlarda asosan ta'limning innovatsion texnologiyasi sifatida keng yoritilgan. J. Deweyning pragmatik pedagogika konsepsiyasida loyiha faoliyati o'quvchilarning real hayotiy muammolarni hal etish jarayonida bilimlarni o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida asoslangan. D. Kolb tajribaviy ta'lim modelida loyiha faoliyatini refleksiya, amaliy tajriba va nazariy umumlashtirish birligi sifatida talqin qiladi. J. Thomas, T. Markham va S. Bell tadqiqotlarida loyihaviy ta'lim talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samarali pedagogik texnologiya sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, loyihaviy yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarda aynan pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlari yetarli darajada tizimli va kompleks tarzda o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda loyihaviy faoliyat kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida talqin etilib, uning pedagog shaxsining ichki kasbiy qadriyatlari, emotsional holati va tashqi pedagogik faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashdagi roli ikkilamchi planda qolib ketgan.

Shuningdek, pedagogik kongruentlikning shaxsiy, emotsional, kommunikativ va refleksiv komponentlarini loyihaviy faoliyat orqali integratsiyalash masalasi ko'pincha fragmentar tarzda yoritilgan. Oliy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan, pedagogik kongruentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihaviy ta'limning mazmuni, metodlari va pedagogik shart-sharoitlari bo'yicha ilmiy asoslangan metodik

modellarning yetishmasligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

**Natijalar va muhokama:** Loyihaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari natijalari pedagogik jarayon samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqot davomida pedagogik kongruentlikning shaxsiy, emotsional-intellektual, kommunikativ va reflektiv komponentlari diagnostik mezonlar asosida tahlil qilindi hamda tajriba avvali va yakunidagi ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi.

Tajriba avvalidagi diagnostika natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning aksariyatida pedagogik kongruentlik darajasining past va o‘rta bosqichlarda ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu holat talabalarning nazariy bilimlari bilan ularning real pedagogik faoliyati, ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik xulq-atvori o‘rtasida yetarli darajada uyg‘unlik shakllanmaganligini anglatadi. Ayniqsa, reflektiv faoliyat va emotsional barqarorlik komponentlarida past ko‘rsatkichlarning ustunligi bo‘lajak pedagoglarning o‘z pedagogik faoliyatini ongli tahlil qilish va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatlari yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat berdi.

Loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish, muammolarni mustaqil hal etish va o‘z faoliyatiga reflektiv yondashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ushbu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki kasbiy qadriyatlari bilan tashqi pedagogik faoliyati o‘rtasida izchil bog‘liqlikni shakllantirishga xizmat qildi.

Tajriba yakunidagi natijalar tahlili yuqori darajadagi pedagogik kongruentlik ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. O‘rta va past darajadagi ko‘rsatkichlarning izchil kamayishi esa bo‘lajak pedagoglarning katta qismi pedagogik kongruentlikning yuqori bosqichiga

*ilmiy –amaliy anjuman*

ko‘tarilganini anglatadi. Bu holat loyihaviy yondashuvning pedagogik kongruentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, kommunikativ va reflektiv komponentlar bo‘yicha ijobiy dinamika kuzatildi. Talabalar pedagogik muloqotda ochiqlik, ishonch va izchillikni namoyon etish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va ongli pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Emotsional-intellektual barqarorlik komponentida ham sezilarli o‘shish qayd etilib, bu bo‘lajak o‘qituvchilarning stressga bardoshlilik va empatiya ko‘rsatish qobiliyatining oshganidan dalolat beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy yondashuv pedagogik kongruentlikning alohida komponentlarini emas, balki ularning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini ta‘minlovchi integrativ pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tajriba yakunida bo‘lajak pedagoglarda pedagogik pozitsiyaning barqarorlashuvi, kasbiy o‘zini anglash darajasining oshishi va ichki kasbiy e‘tiqodlar bilan tashqi pedagogik faoliyat o‘rtasida barqaror uyg‘unlik shakllangani aniqlandi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi hamda mazkur yondashuvni oliy pedagogik ta‘lim amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Тоффлер Э. Третья волна: [Пер.сангл.]. URL: [http://royallib.com/read/toffler\\_elvin/tretya\\_volna.html#2130051](http://royallib.com/read/toffler_elvin/tretya_volna.html#2130051) (дата обращения 17.01.2016).].
2. Сериков В. В. Подготовить учителя к непрерывному саморазвитию [Электронный ресурс] // Непрерывное образование: XXI век. 2014. Вып.

- 1 (5). URL: [http://lll21.petrus.ru/journal/content\\_list.php?id=8541](http://lll21.petrus.ru/journal/content_list.php?id=8541) (дата обращения 03.07.2014).]
3. Колесникова И. А., Горчакова-Сибирская М. П. Педагогическое проектирование: учеб. пособие для высш. учеб. заведений / Под ред. В. А. Сластенина, И. А. Колесниковой. М.: Академия, 2008. 288 с., Колесникова И. А. Трансдисциплинарная стратегия исследования непрерывного образования [Электронный ресурс] // Непрерывное образование : XXI век. 2014. Вып. 4. URL: [http://lll21.petrus.ru/journal/content\\_list.php?id=8541](http://lll21.petrus.ru/journal/content_list.php?id=8541) (дата обращения 17.01.2015)., Масюкова Н. А. Проектирование в образовании. Минск: Технопринт, 1999. 286 с.].
4. Колесникова И. А., Горчакова-Сибирская М. П. Педагогическое проектирование: учеб. пособие для высш. учеб. заведений / Под ред. В. А. Сластенина, И. А. Колесниковой. М.: Академия, 2008. 288 с.]
5. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika (Didactica Magna). – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 312 b.
6. Disterveg A. Nemis o‘qituvchilarini tayyorlashga oid qo‘llanma. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 256 b.
7. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 192 b.
8. Sosnitskiy K. Didaktika asoslari va ta’lim prinsiplari. – Varshava: PWN, 1990. – 214 b.
9. Sorokin N.A. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988. – 176 b.
10. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Moskva: Akademiya, 2001. – 240 b.
11. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.

12. Kobilova N.Kh. Gulboyeva Sh. I., Integration of pedagogical congruence and project-based competence: a modern model for pre-service teacher training/Vol. 3 No. 1 (2026): ADVANCES IN RESEARCH AND INNOVATIONSOLUTIONS/<https://imrconf.com/index.php/ARIS/issue/view/23>
13. Kobilova N.Kh. Gulboyeva Sh. I., Distance learning and development of practical competencies in modern engineering and technical education. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/congres/article/view/5345>